



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

TASHKENT IS THE ADMINISTRATIVE CENTER OF THE TURKESTAN REGION AND PLAYS AN IMPORTANT ROLE IN THE ECONOMIC LIFE OF THE REGION

Zukhrahon Kimsanboyeva*Independent Researcher**Uzbekistan National University**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Tashkent, socio-economic life, railways.

Received: 03.04.25

Accepted: 05.04.25

Published: 07.04.25

Abstract: This article provides a detailed discussion on the role and significance of Tashkent as the administrative center of the Turkestan region, as well as its importance in the economic life of the region, based on sources and literature.

TOSHKENT SHAHRINING TURKISTON O'LKASINING MA'MURIY MARKAZ SIFATIDA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Zuxraxon Kimsanboyeva*Mustaqil tadqiqotchi**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: Toshkent, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, temir yo'llar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahrining Turkiston o'lkasida ma'muriy markaz sifatida hamda o'lka iqtisodiy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati manba va adabiyotla asosida atroflicha yoritilgan.

ТАШКЕНТ ЯВЛЯЕТСЯ АДМИНИСТРАТИВНЫМ ЦЕНТРОМ ТУРКЕСТАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИГРАЕТ ВАЖНУЮ РОЛЬ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ РЕГИОНА

Зухрахон Кимсанбоева*Независимый исследователь**Узбекистанский национальный университет**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ташкент, социально-экономическая жизнь, железные дороги.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены роль и значение города Ташкента как административного центра Туркестанской области, а также его влияние на экономическую жизнь региона на основе источников и литературы.

Toshkent shahri o‘zining tarixiy taraqqiyot jarayonida uzoq va mashaqqatli yo‘llarni bosib o‘tganiga tarix guvohlik beradi. Shahar bir qancha bosqinchiliklar, inqirozlar va yuksalish davrlarini boshidan kechirgan hamda o‘zining soyosiy, madaniy va savdo markazi sifatida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. 1865-yil 29- avgust kuni Toshkent Rossiya imperiyasiga qo‘shib olinganligi rasman e’lon qilingan. Bu vaqtga kelib, rus qo’shinlari Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax shaharlarini bosib olganligi brchamizga ma’lum. Turkiston general-gubernatorligi dastlab Sirdaryo viloyati va Yettisuv viloyatlardan iborat bo‘lgan. Toshkent bir vaqtning o‘zida gubernatorlik va Sirdaryo viloyati markazi hamda general-gubernatorlikning qarorgohi bo‘lgan. Shu yil Anhorning chap sohilida shaharning yangi qismi qurila boshlangandi, bu yerda chor amaldorlari, rus zabitlari, rus aholisi yashab kelganligi manba va adabiyotlarda keltirib o‘tilgan. 1867-yil Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom ishlab chiqiladi. O‘lkazining asosiy ma’muriy tuzilishi harbiy-xalq boshqaruvidan iborat edi. Mahalliy aholini boshqarish uchun esa volostlarda uning tarkibidagivolost boshqaruvchilari saylanardi. Toshkent aholisi sonining ko‘pligi va savdo-sotiq alohida o‘rin tutishi sabab Sirdaryo harbiy gubernatoriga bo‘ysungan. Harbiy gubernator tomonidan tayinlangan shahar boshlig‘i Toshkentga rahbar qilib qo‘yilgan. Chor ma’muriyati tomonidan Turkistonda o‘tkazilgan ma’muriy, sud va soliq borasidagi islohatlarning barchasi so‘zsiz mustamlakachilik xususiyatiga ega edi. Mahalliy aholi siyosiy huquqlardan mahrum etilib, barcha yig‘im va soliqlar Chor Rossiyasi g‘aznasiga yuborilar edi. 1877-yili Toshkent shahar xo‘jaligi ishlari bo‘yicha Nizom joriy qilingan. Bu ishlarni shahar Dumasi boshqarib, Duma tarkibiga 72 ta a`zo saylangan.

XIX asrning 70-90 yillariga kelib Toshkent O‘rtta Osiyoning eng yirik savdo, sanoat va madaniyat markaziga aylangan. Shaharda ichki va tashqi savdo ayriboshlash hajmi jadal rivojlangan. Kapitalistik sanoat korxonalari paydo bo‘lib, madaniy-ma`rifiy muassasalar vujudga keltiradi. Yangi sanoat korxonalari, savdo idoralari, madaniy-ma`rifiy muassasalar shaharning yangi qimiga ko‘rk qo`shgan.

Turkiston general-gubernatorligi tuzilgandan keyin yangi Toshkent juda tez rivojlana boshladi. Shaharning eski qismi deyarli qayta qurilmadi. Yangi infratuzilma va ijtimoiy xizmat ko`rsatish mahalliy aholigari dahl qilmadi. Turkistonning boshqa shaharlari kabi, Toshkentga ham Rossiyadan yersiz dehqonlar ko‘chib kela boshlagan, ularga eng yaxshi, unumdar yerlar ajratilib, ishslash uchun sharoit yaratib berilgan. Ular bu yerda chor ma’muriyatining tayanchi bo‘lib qoladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Rossiya imperiyasining Turkistonga bosqinchilik yurishlari boshlangan.

1865-yil iyun oyida qattiq qarshilikka qaramay shahar aholisi taslim bo‘ldi. Toshkent 1917-yilgacha Turkiston general-gubernatorligining markazi bo‘ldi. Shu davr oralig‘ida shahar o‘ziga xos rivojlanish yo‘lidan bordi. Toshkentning 1865-1917-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixini yoritishda yozma manbalarning o‘rni beqiyos, ushbu manbalarni turkumlarga ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofiq. XIX asrning ikkinchi yarmida mahalliy tarixchilar tomonidan qator asarlar, jumladan shunu aytish joiz Muhammad Solihning “Tarixi jadidi Toshkant”, Avaz Muhammad Attor Hoqandiyning “Tarixi jahonnomayi”, Mirzo Olim Mahdum Hojining “Tarixi Turkiston” nomli asrlarida ma`lumotlar keltirilgan. Bu asrlarda Toshkent shahrini chor qo‘sishnlari tomonidan istilo etilishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar yoritib o‘tilgan. Tarixchi Muhammad Solih Toshkent mudofaasida shaxsan o‘zi ishtirok etgan, jonli guvoh sifatida shahar himoyasi, shaharni podsho qo‘sishnlari tomonidan egallanishi haqida hikoya qilingan. “Tarixi Turkiston” asarida muallif kitobning birinchi qismida Toshkent bilan bog‘liq siyosiy jarayon yoritilgan. Mirzo Olim xonliklar o‘rtasidagi ichki nizo va qarama-qarshilik shaharning egallanishiga sabab bo‘ldi deb hisoblaydi: “bir biri bilan urush talash qilib viloyatni qo‘ldan berdilar, ya`ni rusiya himoyasiz qolgan Toshkent shahrini bir necha kun qamrab, oxiri 1865 yil 15-iyun suluqida Kamolon darvozasidan fatx ettilar”. Shuningdek muarrix shaharning XX asr boshidagi qiyofasi, bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar haqida ma`lumot berilgan. Ushbu manbalar Toshkentning to‘liq manzarasini aks ettirmasada, bu asarlar ilmiy ahamiyatga ega. Poytaxtimizning XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini keng tahlil etishda boshqa manbalar qatorida statistik hisobotlar (materiallar) muhim o‘rin tutadi. 1866-yil yozilgan Turkiston statistik qo‘mitasi o‘z faoliyati davomida, 1872-1879 yillarda 5 ta kitobni nashr etirgan. 1877-yil tugatilgan qo‘mita o‘rniga Sirdaryo viloyati statistika qo‘mitasi faoliyatini davom ettirdi. Bu qo‘mita 24 yil davomida “Sirdaryo viloyati uchun materiallar to‘plami” nomli 14 ta to‘plam nashr etirgan. Ular Toshkent va Toshkent tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib kelmoqda. Bu hisobotlarda shahar aholisi haqida to‘liq ma`lumot ega ekanligi bilan qimmatlidir. 1913-yilda faqat Toshkentning yangi shahar qismida yashayotgan aholi 82851 nafar kishi bo‘lgan. Ular orasida tub millat vakillari orasida ruslar, qozoqlar, tojiklar, buryat, dungan, xitoyliklar ham bo‘lgan. O‘sha vaqtida shaharning eski qismida 100 ming aholisi bo‘lgan.

XIX asr oxirida Toshkent shahri Turkiston o‘lkasining iqtisodiy markaziga aylandi va va dastlabki yevropa tipidagi sanoat korxonalari tashkil topdi. Shahar sanoati va uning ahvoli statistik to‘plamda bayon etilgan. Dastlabki to‘plamda 1885-1887- yillar ma`lumotlari o‘rin olgan. 1885-yilda 130 ishchi ishlaydigan 5 ta paxta tozalash zavodida 311928 ta rublga teng mahsulot ishlab chiqarilgan. 1893- yil ma`lumotiga ko‘ra, 8 ta zavodda hammasi bo‘lib, 1.663.400 pud paxta tozalangan. Shaharda paxta tozalash zavodidan tashqari cho‘yan, ipak zavodi, tamaki va papirus ishlab chiqaruvchi fabrikalar ham bo‘lgan. Sanoatning mazkur tarmoqlariga oid ma`lumotlar statistik to‘plamlarda jadval asosida berib borilgan. 1888 yilgi hisobotda tamaki ishlab chiqarish

bo'yicha birinchi o'rinni Pervushin fabrikasi egallagan. Eng ko'p papirusni Bubnov fabrikasi (1500000 dona) ishlab chiqarilgan. Tadqiq etilayotgan davrga oid manbalar shaharda fabrika-zavod sanoati bilan bir qatorda turli xil ustaxonalar: etikdo'zlik, chilangarlik, duradgorlik, bo'yoqchilik, g'isht teruvchilar, izvoshchi va boshqalar faoliyat haqida ma'lumot keltirilgan. 1886-yil ustaxonalarning umumiyligi mahsuloti 186086 rubl, ishchilar soni esa 677 tani tashkil qilgan. Toshkent shahrining tadqiq etilayotgan davridagi xalq maorifi ahvoli bo'yicha xam statistik hisobotlarda bayon qilingan. Mazkur ma'lumotlar akt va raqamlardan iborat bo'lsa ham o'sha davrdagi shahar maorifini yoritishga xizmat qilgan. 1886-yilgi statistik ma'lumotda asosan shaharda xalq ta'limining yo'lga qo'yilishi va rivojlanishiga Duma o'z hissasini qo'shib kelgan. Duma uning faoliyatini nazorat qilish bilan birga maorif harajatlariga mablag' ham ajraib borilgan. 1886-yil Duma o'z byujetidan xalq ta'limi uchun 10410 rubl sarflagan.

XX asrda xalq maorifi tarmoqlari yanada ko'paydi. Shaharda erkaklar gimnaziyasi, ayollar bilim yurti, xususiy maktablar va rus-tuzem maktablari faoliyat olib brogan, 1911-yilgi ma'lumotda, shaharda jami 48 ta turli xil o'quv yurtlari bo'lgan. Ushbu manbalarga asosan Toshkent shahrining yangi qismi hayoti keng yoritilib, eski shahar to'g'risida kam ma'lumotlar berilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining markazi sifatida siyosiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu haqidagi ma'lumotlar arxiv fondlarida o'rin olgan. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda joy nomlarini o'rganish dolzarb masalalar biri bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 30 avgustdagagi qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinadi. Turli tarixiy va tabiiy jarayonlar ta'sirida Toshkent shahri topografik va toponomik jihatdan o'zgarib borgan. Har bir davrda shaharning o'ziga xos tarixiy toponomik qiyofasi shakllangan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Toshkent hududi kengaygan va uning hududida yangi joy nomlari paydo bo'lgan. Ushbu holat 1967-yil Toshkent Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylantirilgani bilan bog'liq. Bu davrda Anhor arig'idan Solor kanaligacha uzoqlikdagi yerlarga yevropaliklar uchun yangi shahar bunyod etilib, unda radikal-xalqa tizimidagi ko'chalar o'tkazilib, aholining turar joylari bilan birga turli muassasalar uchun binolar quriladi. Toshkentning eski shahar qismida ham yangi muassasalar qurilib, ko'chalarga nomlar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:
2. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи (қадимги даврдан бугунги кунгача) кайта ишланган ва тулдирилган иккинчи нашри Т.: 2009. - 566.

3. Султонов Ў.А. Тошкент мадрасалари Мухаммад Солих Хўжа тавсифида (XIX аср) // Академик У.Каримов номидаги ёш шарқшунослар илмий конференцияси тезислари. Т.: 2005. -676.
4. Мирзо Олим Махдум Xожи. Тарихи Туркистон. Ма'сул мухаррир Чориев З. Т.: 2009. -1576.
5. Ўринбоев А., Бўриев Тошкент Мухаммад Солих тавсифида (XIX аср). Т.:1983. -236.